

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**DJAMALXODJAYEVA GULXUMOR TAXIROVNA**

**MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARINING LINGVOPOETIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT - 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
in philological sciences**

<b>Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna</b> Muhammad Yusuf dostonlarining lingvopoetik tadqiqi.....	3
<b>Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna</b> Linguopoetic study of the epics of Muhammad Yusuf.....	25
<b>Джамалходжаева Гулхумор Тахировна</b> Лингвопоэтическое исследование эпосов Мухаммада Юсуфа.....	48
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	54

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**DJAMALXODJAYEVA GULXUMOR TAXIROVNA**

**MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARINING LINGVOPOETIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil2331 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Yuldashev Ma’rufjon Muhammadjonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Sobirov Abdulhay Shukurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Hakimova Muhayyo Karimovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@www.tsuull.uz](mailto:monitoring@www.tsuull.uz).)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**H.A.Dadaboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**S.Ashirboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliigi zarurati.** Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili va u bilan bog‘liq til sathi birliklarining lisoniy-poetik tadqiq qilish dolzarblik kasb etmoqda. Zotan, har bir sath birligining muayyan adib ijodidagi poetik xususiyatlarini aniqlash, lisoniy hodislarning nutqiy voqelanish shakllarini asoslash muhim masalalardan hisoblanadi. O‘zbek jamiyati tarqqiyotining so‘ngi bosqichida ma‘naviy qadriyatlarimizni qadrlash, milliy tilimizga davlat tili maqomini berish, tilimizning rivojlanish xususiyatlari va qo‘llanish doirasini har tomonlama o‘rganishni talab etmoqda. “Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o‘zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug‘ kelajagimizni ta‘minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo‘lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko‘zgisiga aylanmoqda”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, o‘zbek tilining jamiyat hayotidagi o‘rni kengayishi, nafaqat tilni, balki madaniyati va tarixiy qadriyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot, ilm-fan va ta‘lim sohalarida o‘zbek tilida olib borilayotgan tadqiqotlar va ijodiy ishlanmalar, tilni zamon talablariga mos ravishda yangilash va boyitishga yordam beradi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik yondashuvning rivojlanishi, badiiy matnlarni tashkil etuvchi til birliklarini har tomonlama tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu yondashuv, til va badiiyat o‘rtasidagi aloqani chuqurlashtirishga xizmat qilib, badiiy asarlarning uslubiy xususiyatlari, ma‘lum bir figuralar va ma‘naviy jihatlarini keng qamrovli o‘rganishga imkon beradi.

Jahon tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar, tilning estetik va kommunikativ funksiyalarini aniqlash, shuningdek, adabiy asarlardagi til birliklarining ma‘no qatlamlarini ochishga qaratilgan. Bu jarayon, o‘zbek adabiyoti va madaniyatining o‘ziga xosligini ta‘kidlash bilan birga, tilshunoslik va adabiyotshunoslik o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlarni yuzaga chiqaradi. Natijada, lingvopoetika sohasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik o‘rtasidagu uzviy aloqani ta‘minlashda muhim aspekt sifatida shakllanmoqda. Bu yo‘nalishda, ma‘lum davrlar va shaxslar ijodi misolida bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar doirasida she‘riy asarlarning til uslubiy xususiyatlari, ma‘lum figuralar, muhim muammolar o‘rganilmoqda va taqdim etilmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan dostonlarga xos badiiy xususiyatlarning badiiylik asosida maxsus tahlili, hozirgi o‘zbek lingvopoetikasining dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Oxirgi yillarda yaratilgan badiiy matnlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, nafaqat ijodkorlarning, balki umuman o‘zbek xalqining lisoniy mushohada va nutqiy ifoda jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida tilning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur va hatto sun‘iy intellekt bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan yangi yo‘nalishlarning shakllanishi ilmiy tadqiqotlar oldida muhim vazifalarni qo‘yadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. Xalq so‘zi. – 2023-yil 22-oktyabr, № 225.

Ijodkor o‘z tamoyillari asosida lingvopoetika qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, ma’lum ijodkor asarlaridagi umumiy lingvopoetik voqealar va omillarni tahlil qilish masalasiga e’tibor qaratadi. Shu bilan bir qatorda, Muhammad Yusuf ijodi ham juda muhim bir halqani tashkil etadi. Zero, uning ijodida davr she’riyatida kuzatilgan asosiy tamoyillar o‘zining aksini topgandir. Mavzuning o‘rganilishi XX asr o‘zbek she’riyati taraqqiyotida muhim bir bosqich haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Muhammad Yusuf ijodidagi dostonlarida ana shu ezgu g‘oyalarni o‘rganish, uning tarkibidagi turli janrdagi she’riy parchalarni lingvopoetik aspektda tahlil qilish, shuningdek, nasrdagi alohidalik belgilarini yoritish, tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 20-may kuni Toshkent shahrida tashkil etilgan Adiblar xiyobonida tashrifi davomida berilgan topshiriqlari va o‘tkazilgan majlisning 35-son bayoni ijrosini ta’minlash hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida badiiy asar tili bilan bog‘liq hamda lingvopoetik xususiyatlari bo‘yicha qator tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, tilshunoslar Y.M.Lotman, R.Yakobson, B.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, V.Vinogradov, A.A.Lipgart, V.Ya.Zadarnova kabi bir qancha tilshunoslaraning bu sohadagi ishlarida tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarining uyg‘unligi, uzviy bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari suradi. Ushbu tadqiqotlarda badiiy matn tadqiqi jarayonida lingvopoetik yondashuvning mohiyati, til birliklarining badiiy matnni shakllantirishdagi roli va yozuvchining

badiiy niyatini yoritishdagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi<sup>2</sup>.

O'zbek tilshunosligida ham lingvopoetik tadqiqotlarda yozuvchi tili va uslubi, badiiy asar tilini o'rganish kabi masalalar maxsus o'rganilgan. I.Sulton, A.Nurmonov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, N.Mahmudov, I.Mirzayev, S.Karimov, M.Yoqubbekova, G.Rixsiyeva, M.Yo'ldoshev, G.Muhammadjonova, D.Shadiyeva, D.Andaniyazova, Sh.Toshxo'jaeva, S.Umirova, T.Allayorov, J.Yuldashev, N. Ortiqova kabi o'zbek tilshunoslarining ishlarida mazkur masalalar bo'yicha tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasining ayrim qirralariga bir qator filologlar tomonidan to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da<sup>4</sup>, lekin shu kunga qadar shoirning ijodidagi dostonlari lingvopoetik aspektda maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Muhammad Yusuf ijodiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup>Бу ҳақда қаранг: Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм: "за" и "против". – М., 1975; Лотман М. Ю. О поэтах и поэзии, СПб., 1996; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 1996; Жирмунский В.М. Эпическое творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса. – М.: Академия наук, 1958; Виноградов В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Академия наук, 1963; Винокур Г.О. Критик поэтического текста – М.: Государственная Академия Художественных Наук, 1927; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1992; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дисс...д-ра. филол. наук. – М., 1996; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 2006; Аксенова А.В. Лингвопоэтический анализ стихотворных произведений У.Б. Ейтса: Особенности эволюции индивидуально авторской манеры. Автореф. дисс. д-ра. филол. наук. – М., 2013.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademi nashr, 2012; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б.34-38; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс....д-ра. филол. наук – Ташкент, 1992; Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ – 1994. Ёқуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2005; Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. – №2. – Б. 84-86; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007; Шу муаллиф. Бадий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008; Шу муаллиф. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Шу муаллиф. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009; Шу муаллиф. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: O'zbekiston, 2019; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири – 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007; Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликларнинг лингвопоэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017; Шу муаллиф. Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016; Худойберганова Д., Анданиёзова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз...дисс.автореф. – Фарғона, 2017; Умирова С. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. – Самарқанд, 2019; Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги сўроқ ва буйруқ конструкцияларнинг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. автореф. – Гулистон, 2020.; Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Ortiqova N. Anvar Obidjon she'riyatining fonoleksopoetik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2024.

<sup>4</sup> Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007.

**Tadqiqotning maqsadi** Muhammad Yusuf dostonlaridagi til birliklarini lingvopoetik tamoyillar asosida aniqlash, tasniflash va ta'riflash, shuningdek, ularning poetik aktuallashuvini ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Muhammad Yusuf dostonlaridagi alohida ahamiyatga ega bo'lgan, muallifning badiiy niyati va matn butunligiga xizmat qilgan paremiologik birliklar lingvopoetik aspektda tahlil qilish;

shoir dostonlaridagi metafora, metonimiya, kinoya hamda perifrazalarning qo'llanishi natijasida matnda namoyon bo'lgan poetik aktuallashuv jarayonlarini aniqlash;

Muhammad Yusuf dostonlaridagi agnonimik birliklar davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi asosida yoritilgan hamda parallelizm, ritorik so'roq gap, inversiya, gradatsiya, oksyumoron, antiteza va o'xshatish kabi sintaktik tasviriy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berish;

Muhammad Yusuf dostonlaridagi emotsional-ekspressiv imkoniyatlari aniq sezilib turadigan poetonimlarni aniqlash va ularning poetik faollashuv darajasiga ko'ra tasnif qilish mexanizmlarini belgilash;

**Tadqiqotning obykti** sifatida Muhammad Yusufning 2018-yilda nashr etilgan "Xalq bo'l, elim" nomli kitobiga kirgan 5 ta doston olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Muhammad Yusuf dostonlaridagi lingvopoetik ahamiyatga ega til birliklari tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, semantik-stilistik, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Muhammad Yusuf dostonlaridagi alohida ahamiyatga ega bo'lgan, muallifning badiiy niyati va matn butunligiga xizmat qilgan paremiologik birliklar lingvopoetik aspektda ilmiy dalillangan;

shoir dostonlaridagi metafora, metonimiya, kinoya hamda perifrazalarning qo'llanishi natijasida matnda namoyon bo'lgan poetik aktuallashuv jarayonlari aniqlangan;

Muhammad Yusuf dostonlaridagi agnonimik birliklar davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi asosida yoritilgan hamda parallelizm, ritorik so'roq gap, inversiya, gradatsiya, oksyumoron, antiteza va o'xshatish kabi sintaktik tasviriy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari ochib berilgan;

Muhammad Yusuf dostonlaridagi emotsional-ekspressiv imkoniyatlari va aniq sezilib turadigan poetonimlar aniqlangan hamda ularning poetik faollashuv darajasiga ko'ra tasnif qilish mexanizmlari isbotlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Muhammad Yusuf dostonlarining badiiy barkamolligini ta'minlovchi fonetik-fonologik vositalar aniqlangan va lingvopoetik aspektda ochib berilgan;

Muhammad Yusuf dostonlaridagi turg'un va boshqa birliklarning leksik-semantik, sintaktik-stilistik xosligi ko'rsatib berilgan;

dostonlardagi ijodkorning badiiy niyati va lisoniy mahorati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning analitik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil kabi usullar bilan asoslangani, ishonchli nazariy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dostonlar tilining lingvopoetik xususiyatlari aniqlanganligi hamda badiiy matnni integrativ metodka tadqiq etishning nazariy asoslariga oid yangi ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilganligi, o'zbek tilida badiiy matn lingvopoetikasini nazariy jihatdan keltirilgan fikr-mulohazalar orqali to'ldirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, "Lingvopoetika", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari" va "Badiiy matnning lingvistik tahlili" kabi mutaxassislik fanlarida ma'ruzalar tayyorlashda, akademik litsey va kollejlarda, shuningdek, umumta'lim maktablari uchun o'zbek tili faniga oid o'quv qo'llanmalarini va darsliklarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muhammad Yusuf dostonlarining lingvopoetik tadqiqi yuzasidan olingan natijalar asosida:

Muhammad Yusuf dostonlaridagi alohida ahamiyatga ega bo'lgan, muallifning badiiy niyati va matn butunligiga xizmat qilgan paremiologik birliklar lingvopoetik aspektda ilmiy dalillangani, shoir dostonlaridagi metafora, metonimiya, kinoya hamda perifrazalarning qo'llanishi natijasida matnda namoyon bo'lgan poetik aktuallashuv jarayonlarini aniqlashda, ularni lug'atlarga jamlash tamoyillari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston xoreografiya akademiyasida 2020-2021-yillarda amalga oshirilgan FZ-2019081663 "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston xoreografiya akademiyasining 2023-yil 25-yanvardagi № 1/04-37-son ma'lumotnomasi). Natijada Muhammad Yusuf dostonlarining lingvopoetik tadqiqi orqali o'zbek milliy raqs san'atini zamonaviy kontekstda rivojlantirish va folklor an'analarini saqlashga qaratilgan elektron lug'at va multimedia materiallarini tayyorlashga xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf dostonlaridagi agnonimik birliklar davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi asosida yoritilganligiga, shoir asarlaridagi parallelizm, ritorik so'roq gap, inversiya, gradatsiya, oksyumoron, antiteza va o'xshatish kabi sintaktik tasviriy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari ochib berilganligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 502-son Qarori bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o'rganish mazmunidagi yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 4-yanvardagi 03-11-17-11-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf dostonlaridagi emotsional-ekspressiv imkoniyatlari va aniq sezilib turadigan poetonimlar aniqlangan va ularning poetik faollashuv darajasiga ko'ra tasnif qilish mexanizmlari isbotlangan ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan "O'zbekiston tarixi" teleradiokanalida "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 8-fevraldagi 06-31-210-son ma'lumotnomasi) Natijada ko'rsatuv mazmuni Muhammad Yusuf dostonlarining lingvopoetik tadqiqi bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot ishining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 3 ta, respublika jurnallarida 7 ta maqola nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 164 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek tilshunosligida badiiy til tadqiqi va Muhammad Yusuf she'riyatining o'rganilishi**" deb nomlangan I bobida badiiy matnga bo'lgan munosabat, lingvopoetik yondashuv hamda lingvopoetik tadqiq masalalarini atroflicha yoritish xususida fikr yuritiladi.

Bobning "**O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining o'rganilishi**" deb nomlanuvchi § I.1.da tilshunoslikda badiiy asar tili muammolari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, adibning til sathi birliklarini qo'llashdagi o'zgacha uslubni yaqqol ochib berishi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Har qanday janrdagi badiiy asar to'la ma'noda nutqiy hodisa bilan bir qatorda milliy til imkoniyatlariga asoslangan bo'ladi. Badiiy tilsiz badiiy adabiyot ham mavjud bo'la olmaydi. Badiiy til tushunchasining o'zi keng qamrovli tushuncha bo'lib, buni tilshunos M.Yo'ldoshev o'zining dissertatsiya ishida alohida ochib bergan<sup>5</sup>. Badiiy asarning umumiy tuzilishi va janriy ifoda tarzi badiiy til birliklari va tasvir vositalari asosida ro'yobga chiqadi.

---

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009.

Har bir adib uslubini o‘z asarida so‘z qo‘llash orqali taqdim etadi, bu esa bir ijodkorning tili ikkinchisidan farq qilishini anglatadi. Masalan, Oybek asarlari tilida epiklik, liriklik aniq ko‘zga tashlansa, G‘afur G‘ulom badiiy tilida metaforalarning ko‘pligi va o‘ziga xosligi, mubolag‘alarning mahorat bilan qo‘llanilganligi, kinoyaning o‘tkirliги kuzatiladi. Abdulla Qahhor asarlari tilida esa so‘zga hassoslik, so‘z qo‘llashdagi ixchamlik va tejamkorlik, so‘zning butun imkoniyatlarini teran anglash va ishlata olishdek ulkan mahorat sezilib turadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida gap ketganda, R.Qo‘ng‘urov, I.Qo‘chqortoyev, Q.Samadov, B.Yo‘ldoshev, X.Doniyorov va S.Mirzayev, P.Qodirov, S.Karimov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov<sup>6</sup> kabi ko‘plab olimlarimizning nomlarini tilga olish mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni bildiradi-ki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddiy o‘rganish, badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doimo diqqat markazida bo‘lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini anglamay turib, asar g‘oyasi va mazmun-mohiyatini bir butun holda chuqur idrok qilish mumkin emas.

§ I.2. **“Muhammad Yusuf she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi masalalari”** deb nomlangan. Dunyo tilshunosligida lingvopoetika muammolariga bo‘lgan qiziqish XX asrning 60-yillaridan shakllana boshlandi. Xususan, rus tilshunoslari. V.V.Vinogradov, A.A.Lipgart, V.M.Jirmunskiy, V.Y.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba va boshqalar lingvopoetikaning alohida fan sifatida filologiya ilmidagi o‘rganilishi yuzasidan qarashlarini bayon qilganlar<sup>7</sup>.

Ta’kidlashimiz joizki, o‘zbek tilshunosligida lingvostilistik yo‘nalishda juda katta miqdordagi ilmiy ishlar yaratildi<sup>8</sup>. Hech shubhasiz, ana shu lingvostilistik

<sup>6</sup> Kўнғиров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975; Кўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: ТДПИ, 1981; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ. – 1982; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. – Тошкент: Фан, 1988; Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1993; Абдурахмонов Х, Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – В. 58-66.

<sup>7</sup> Виноградов В.В. О Языке художественной литературы. – М., 1959; Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и поэтической речи. Поэтика. – М., 1963; Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования в развитии. – М.: Высшая школа, 1967; Липгарт А.А. К проблеме интерпретации шекспировских сонетов // Философия языка. Функциональная стилистика. Лингвопоэтика: Сборник научных статей. М., 2004, №2, С. 115-129; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы). Автореф. дисс. д-ра. филол. наук. – М., 1996; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 2006; Жирмунский В.М. Байрон и Пушкин. – Л., 1978; Жирмунский В.М. История западноевропейской литературы. – М., 1947; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977; Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста – М., 1984; Задорнова В.Я. Словесно-художественного произведения на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Дисс... д-ра. филол. наук. – М., 1992; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969; Akhmanova O., Zadornova V. Linguopoetic Stratification of Literary Texts // Poetica. Токуо, 1977. - №7; Избранные труды по русскому языку – М., 1986; Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. Отв.ред Г.В.Степанов В.Н. Нерознак. – М., 1990; Щчерба Л.В. Очередные проблемы языковедения. История советского языковедения – М.:Высшая школа, 1971.

<sup>8</sup> Masalan, ayrim so‘nggi tadqiqotlar: Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1997; Дониёров Ш. Шукур Холмирзаев хикояларининг бадий-услубий

yoʻnalishdagi ilmiy ishlarda toʻplangan tajribalar, nazariy xulosalar tabiiy ravishda keyingi oʻn yilliklarda oʻzbek tilshunosligida ham lingvopoetik yoʻnalishdagi tadqiqotlarning paydo boʻlishga olib keldi. Jumladan, yirik tilshunos olim N.Mahmudovning bir qator maqolalarida ayrim shoir va yozuvchilar asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlari toʻgʻrisidagi fikrlar chuqur yoritilgan<sup>9</sup>. Shuningdek, lingvopoetika sohasi shakllanishiga asos solgan I.Mirzayev, M.Yoʻldoshev, G.Rixsiyeva kabi yetakchi tilshunos olimlar tadqiqotlarini alohida keltirishimiz mumkin<sup>10</sup>.

Badiiy tilning aynan estetik vazifasining namoyon boʻlishi tarzida oʻrganuvchi soha hisoblangan lingvopoetika filologik ilmlar tizimida alohida mavqega ega boʻlib bormoqda<sup>11</sup>. “Badiiy asar tilini oʻrganish ijodkorning oʻziga xos badiiy vositalarini aniqlash, uning badiiy mahorati, oʻziga xos uslubini oʻrganishdir”<sup>12</sup>. Shuning uchun har qanday badiiy asar tili tadqiq etilayotganda yozuvchining qaysi tasviriy vositalaridan, xususan, “xalq jonli tili boyliklaridan qanday foydalanishi”<sup>13</sup> tadqiqotchining diqqat markazida boʻladi.

Lingvopoetika keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida oʻziga xos tadqiqot obyekti, tamoyillari va tadqiqot mexanizmlariga ega boʻlgan soha sifatida takomillashdi. Tilning estetik vazifasining namoyon boʻlish oʻrni tariqasida oʻrganish badiiy matn tili taomiliga kirdi. Oʻzbek lingvopoetikasi hozirgi kunda oʻzbek tilshunosligining ilgʻor sohalaridan biriga aylandi.

Soʻz sanʼatkorining badiiy tilining oʻziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar tilshunosligimizda dolzarb mavzular darajasida ekanligi ayni haqiqatdir. Oʻzbek adiblari ijodining lisoniy tadqiq etgan Sh.Doniyorov, R.Normurodov, M.Yoʻldoshev, G.Keldiyorova, D.Neʼmatova, Y.Sayidov, F.Bobojonov, G.Muhammadjonova, S.Boymirzayeva, A.Sabridinov, L.Jalolova, M.Qosimova, D.Shadiyeva, Sh.Toshxujayeva, G.Jumanazarova, D.Andaniyozova, J.Yuldashlar<sup>14</sup> yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

---

Ўзига хослиги. Филол.фан.номз...дисс. автореф.- Тошкент, 2000; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс. – Самарқанд, 2004; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 2006; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009; Курбонова М. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикasi. Филол. фан. б. фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2019.

<sup>9</sup> Махмудов Н. Ойбек шеъритадаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикasi // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикasiга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б. 34-36.

<sup>10</sup> Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Автореф. дисс....д-ра. филол. наук – Ташкент, 1992; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009; Рихсиева Г. Нисбат шаклларининг лингвопоэтик тадқиқига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – № 4. – Б. 33-35.

<sup>11</sup> Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент, 2007. – Б.7.

<sup>12</sup> Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2000.

<sup>13</sup> Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962.– Б.13.

<sup>14</sup> Дониёров Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол.фан.номз...дисс. автореф.- Тошкент, 2000; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2000; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза. Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2000; Неъматова Д. Чўлпон публицистикasinинг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Бабаджанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва авлоний

Muhammad Yusuf dostonlari lingvopoetika aspektida dissertatsiya ishi sifatida o'rganilmagan. Ammo adib she'riyatiga bag'ishlangan ko'pgina dissertatsiyalar hamda maqolalar<sup>15</sup> chop etilgan bo'lib, e'lon qilingan maqolalarning aksariyati shoirning yorqin xotirasiga bag'ishlangan.

Shu nuqtayi nazardan dostonlar tiliga xos poetik xususiyatlar, xususan, zamonaviy dostonlarning badiiylik asosida maxsus tadqiq etilishi hozirgi o'zbek lingvopoetikasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, Muhammad Yusuf dostonlari til birliklar xususiyatida mukammallikka amal qilib, butun katta matnni yaratishga xizmat qiladi. Hech bir so'z dostonida bayon qilingan voqealar silsilasidan tashqarida qolishi kerak emas. Shuning uchun shoir ularning hammasini bitta tizimda, ya'ni ko'lamdorlikda dostonlarni yaratgan. Kichik she'riyatda bu kabi keng, ko'lamdor tizimda til birliklarini uchratmaymiz. Shuning uchun dostonlarni maxsus o'rganish muhim sanaladi. Muhammad Yusuf xalq dostonlaridan ilhomlangan, ulardagi ayrim birliklardan, xalqonalikdan, jonli nutqdan foydalangan. Natijada zamonaviy o'zbek dostonini yaratgan. Shoirning deyarli barcha dostonlarida o'tmishning eng qora kunlari tasvirlangan va ushbu holat barcha dostonlarini birlashtiradi. Bu bilan esa Muhammad Yusuf dostonlari zamonaviy o'zbek dostonchiligida o'ziga xos tomonlari bilan farqlanishi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning II bobi **“Muhammad Yusuf dostonlarida paremiologik birliklar badiiyati”** deb nomlanib, shoir dostonlarda paremiologik birliklarning, ya'ni frazeologizmlarning, maqol va matallarning, hikmatli so'zlarning qo'llanishi doirasida fikr yuritiladi. Bobning **“Paremiologik birliklar va ularning poetik xususiyatlari”** deb nomlanuvchi § II.1 da badiiy matnda barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish muhim hisoblanishi, ijodkorlar bunga alohida e'tibor qaratganligi xususida ta'kidlanadi. Manbalarda paremalarning muayyan fanlar

---

драмалари асосида). Филол.фан. номз...дисс. автореф. Самарқанд, 2002; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири – 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс. – Самарқанд, 2004; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. Филол.фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятини лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Фарғона, 2017; Жуманазрова Г. “Ширин билан Шакар” дostonнинг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008; Шу муаллиф. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2017; Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birlikларнинг лингвопоэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017; Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. avtoref.-Toshkent, 2023.

<sup>15</sup> Азизова И. Куй – асрор, сўз эса тилмоч // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 19 март; Муҳаммад Али сози тинмайди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 23 апрель; Мусурмон Р. Халқ шоирига эҳтиром // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 7-май – №18; Орипов А. Безавол ижод // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 7-май – №18; Умиров С. Улуғимсан шоирим // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 7-май. – №18; Худойбердиева Ҳ. Бизнинг Муҳаммадимиз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 7-май. – №18; Юсупова М. Унутмадим ваъдамни ота // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 7-май. – №18; Каримов Н. М.Юсуф ва hozirgi ўзбек шеърятини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 5. – Б. 16-19; Раҳимжонова Н. Муҳаммад Юсуф лирикасида фольклор аънаналари ва бадий образлар индивидуаллиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. - № 5. – Б. 16-19.

oralig'idagi hodisa ekanligi alohida tilga olinadi. Paremalar folklorshunoslik va adabiyotshunoslikda og'zaki ijod mahsuli sifatida avloddan avlodga o'tib, sayqallangan til hodisasi hisoblanadi. Ular xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning kesishmasida shakllanib, ko'pincha she'riy shaklga ega bo'ladi. Paremalar o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya va piching kabi tasviriy vositalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, paremalar ma'lum fikrlarni ifodalovchi sintaktik tuzilmalardan iborat bo'lib, tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida ham ahamiyatga ega. Paremiologiya ana shu ikki jihatni o'zida birlashtiradi. Paremiologiyaning eng kichik ma'noli birligi bo'lgan pemalearning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatini o'rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog'liq.

Parema haqida so'z yuritganda B.Sarimsoqov mazkur turning yetakchi xususiyatini alohida ta'kidlab o'tgan edi. "Parema adabiy turiga mansub janrlarda voqelikni hikoya qilib berish, kechinmalar orqali ko'rsatish prinsipi emas, balki voqelikni kuzatish orqali, to'plangan tajribalar orqali obrazli ifodalash va u haqda hukm chiqarish prinsipi yetakchilik qiladi"<sup>16</sup>.

Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos yo'lini dostonlar orqali qahramonlar dunyoqarashini, syujet chizig'idagi dolzarb mavzularni tasvirlash va dostonlardagi didaktik mazmun, falsafiy-estetik mohiyatga suyanish an'anasi belgilab berdi. Sevimli shoirimizning har bir yaratgan asari o'zbek adabiyotining bebaho xazinasidir. Uning asarlari falsafasi, badiiy tasvir vositalarining kuchliligi, tilining sodda va betakrorligi, intonatsion butunligi bilan o'zbek poetik tilining fenomeni hisoblanadi.

§ II.2. **“Muhammad Yusuf dostonlarida qo'llanilgan frazeologizmlarning badiiy-estetik va transformatsion xususiyatlari”** deb nomlanadi. Muhammad Yusuf dostonlaridagi turg'un iboralarning 2 turi uchraydi: *1. Ilk shakli aynan saqlangan iboralar; 2. Transformatsiyaga uchragan iboralar.* Bunda hech qanday transformatsiyaga uchramagan, o'zining ilk shaklini saqlagan iboralar alohida e'tibor talab qilmaydi va barcha uchun tushunarlilik darajasi bir xil bo'ladi. Shaklan o'zgargan yoki semantik-struktura jihatdan qandaydir o'zgarishga uchragan iboralar tadqiqotchilar diqqatini tortmay qolmaydi. Shu bois shoir dostonlaridagi iboralar bilan bog'liq transformatsion jarayonlar haqida so'z yuritganda quyidagi holatlar ko'zga tashlandi: *a) iboralar tarkibidagi ba'zi bir so'zlarni boshqa leksema bilan almashtirish; b) iboraning sintaktik-struktural transformatsiyaga uchrashi; c) ibora mazmunining doston misralariga singdirib yuborilishi; d) dostonlarda ma'nodosh iboraning yaratilishi; e) dostonlarda zid ma'noli iboraning qo'llanilishi.*

Muhammad Yusuf o'z asarlarida jonli tilga xos iboralarning doston misralariga singdirib yuborilishi kuzatiladi. Xalq tilida ko'p qo'llaniladigan *“Joni bo'g'ziga keldi”* yoxud *“Joni halqumiga keldi”* iborasi Muhammad Yusufning *“Ey, Dil..”* asarida shunday ifodalanadi:

..Moziydan bir  
Padarkushning

<sup>16</sup> Саримсоқов Б. Адабий турлар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. № 5 – Б.11.

*Qo'llari qon, sirg'alar.*

*Tig'yaltirar,*

*Ulug'bekning*

***Bo'g'ziga jon sirg'alar...*** (“Ey, Dil...”)

Keltirilgan misralarda *bo'g'ziga jon sirg'alar* iborasi asl varianti *joni bo'g'ziga keldi bo'lib*, “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da ushbu iborani *chidami tugab, yashashdan ham bezor bo'lib ketmoq* degan ma'nolarni anglatadi<sup>17</sup>. *Joni* va *bo'g'ziga* so'zlari o'zaro o'rinlari almashtirilib kelgan bo'lsa, *keldi* fe'l so'z-komponenti o'rniga esa ma'no jihatdan yaqin bo'lgan *sirg'alar* leksemasi bilan o'zgartirib, *sirg'almoq* so'zidan hosil bo'lgan so'z “..sekingina surilmoq, siljimoq, yurmoq”<sup>18</sup> ma'nolarni anglatadi. Natijada so'z iboraning ifoda planida yaqqol namoyon bo'lib, uning mazmun planiga ta'sir qilmagan holda adib so'z komponentlaridan mahorat bilan foydalanganligini kuzatamiz. *Sirg'alar* fe'l komponenti misralarning qofiyalarida ketma-ket kelishi asarning betakror chiqishida qo'l kelgan.

**“Muhammad Yusuf dostonlarida maqol va matallarning ifodalanishi”** deb nomlanuvchi § II.3 da shoir dostonlarida maqol va matallardan badiiy-estetik niyatiga mos foydalanganligi alohida ta'kidlanadi. Muhammad Yusuf dostonlarida qo'llagan maqollarni quyidagi yo'nalishlarda o'rganish mumkin: 1. *Maqollardagi ayrim so'zlarning grammatik jihatdan o'zgartirib qo'llanishi*; 2. *Maqollarda ayrim leksik o'zgarishlar (sinonim, kontekstual antonim yoki boshqa so'zlar tanlash hisobiga) yuz berishi*; 3. *Maqollarda so'z tartibining o'zgarishi*; 4. *O'zgarishlarsiz qo'llanilgan maqollar*.

Muhammad Yusufning “Temirlar nidosi” dostonida:

*“O'zingdan topgan baloga,*

*Qayga bording davoga”* (“Temirlar nidosi”)

Ushbu maqol “Ma'nolar maxzani” kitobida “O'zimdand chiqqan baloga, qayga boray davoga?” tarzida beriladi<sup>19</sup>. Maqolning shaxsi umumlashgan gapga aylantirilishi *chiqqan* sifatdoshi o'rniga *topgan* so'zining qo'llanilishi ham maqol ma'nosiga biroz o'zgartirish kiritadi: ya'ni “*balo o'zimdand chiqdi*” emas, balki “*baloni o'zing topding*” ma'nosi she'r ruhiyatini yorqinroq ifodalaydi. Dostonda temirdan qay maqsadda foydalanayotgani tasvirlangani hamda ushbu gaplar temir nomidan insonga qarata aytilayotgani e'tiborga olinsa, so'z almashish mantiqan to'g'ri ekanligi ayon bo'ladi.

§ II.4. **“Muhammad Yusuf dostonlarida hikmatli so'zlarning qo'llanilishi”** deb nomlanadi. Dostonlarda shoir ijodiga oid ko'plab hikmatli fikrlar, favqulodda betakror mulohazalar, ohorli falsafiy xulosalarni uchratish mumkin. Shoirning dostonlarida qo'llangan hikmatomuz jummalarni grammatik jihatdan quyidagi turlarga ajratib tahlil qilindi: **1. Kontrast (ziddlik) usulida shakllangan aforizmlar:** “*Bilib turib birovga ozor berishdan yomoni yo'q. O'zing ham bilmasdan birovga yaxshilik qilishdan ortiq yaxshilik yo'q*” (“Osmonning

<sup>17</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978. – Б.101.

<sup>18</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. 3-жилд. – Б 525.

<sup>19</sup> Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – В. 397

oxiri”). Bu aforizmlarda “*Bilib*” – “*bilmasdan*”, “*ozor*”- “*yaxshilik*”, “*yomon*” – “*yaxshilik*” kabi o‘zaro zid ma’noli komponentlar fikrning aniq hamda ishonchli ifodalashga yo‘naltirilgan. Aforizm strukturasi o‘ziga xos bo‘lib, ana shu o‘ziga xoslik badiiylikning xarakterini, uning miqyosini anglatib turadi. Aksariyat aforizmlar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qismdan iborat bo‘ladi. **2. Perifrastik ifoda usulida shakllangan aforizmlar.** Shoirning “Qora quyosh” dostonida kelgan bir qancha hikmatli so‘zlar aynan ushbu usulda ifodalangan: “*Qora non – imon, jo‘ra*”, “*Baxt bir burda qora non*”, “*Haqiqat qon yurakdir*”, “*Orzu yurgan yo‘lingdir*”, “*Armon esdan chiqqan tush...*”. tarzidagi individual aforizmlarda ijodkorning ma’naviy va badiiy saviyasi, keng tasavvur va idroki, falsafiy va axloqiy sifatlari namoyon bo‘lgan. Qora nonni imon qadar muqaddas bilish, aziz tutish xalqimizga xos qadriyatni ifoda etsa, bir burda qora nonni baxtga qiyoslash davr koloriti, ocharchilik va ijtimoiy muhit tasviri uchun xizmat qilgan.

Tadqiqotning III bobi “**Muhammad Yusuf dostonlaridagi leksik-semantik va sintaktik vositalar tahlili**” deb nomlanadi. Ushbu bobning § III.1. da “**Dostonlar tilidagi ko‘chimlarning ifodalanishi**” tahlil qilingan. Badiiy tasvir vositalaridan biri ko‘chim badiiy matnda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadigan eng faol vositalardir. Ko‘chimlar bu “adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishi<sup>20</sup>” tushuniladi. Muhammad Yusuf dostonlarida metaforalar juda katta mahorat bilan qo‘llanilgan. Muallif asarda metaforalarni ifodalashi bilan badiiy-estetik yuk qo‘ya olgan. Bu esa quyidagi misralarda o‘z ta’kidini topadi:

*Buxoro, sen shamga o‘xshaysan  
Mening ko‘ngil hujramga kirgan,  
Tutab, o‘chib qolay deb turgan,  
So‘nar so‘nggi shamga o‘xshaysan. (“Ko‘hna quduq”)*

Misolda qo‘llanilgan ko‘ngil hujrasi metaforasi subyektiv holatni berishda katta rol o‘ynaydi. *Hujra* leksemasi ongimizda *torlik*, *qorong‘ilik*, *kambag‘allik* semalari bilan reallashadi. Uning *ko‘ngil* bilan birikma tarzida kelishi shoir ko‘ngliga xos xuddi shu belgilar (*torlik*, *qorong‘ilik*, *chorasizlik*)ga ishoradir.

Muhammad Yusuf dostonlarida ham metaforalar singari metonimiyali ifodalar o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Shoirning “Ko‘hna quduq” dostonida millat nomi orqali mamlakat nomiga ishora qilinib, metonimiya yuzaga kelganligini kuzatamiz. Masalan,

*Qozoqning dashti ham keng ekan,  
Bepoyon bir yurtga teng ekan. (“Ko‘hna quduq”).*

Keltirilgan *qozoq* millati nomi orqali Qozog‘iston davlatining yerlari, tabiati adib tomonidan juda go‘zal qilib ta’riflangan. Bu esa nutqqa tasviriylik baxsh etishi bilan birga fikrni ixcham tarzda ifodalashda qo‘l kelgan.

*Oh, oltin bobom-a, voh tillo bobom...  
O‘tgan kuning qursin, Abdullo bobom! (“Qora quyosh”).*

<sup>20</sup> Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 236.

Keltirilgan misolda *o'tgan kun* birikmasi shu nomdagi asar yozilgan kitobni bildiruvchi hosila ma'no bilan namoyon bo'lgan. Mana shu aloqadorlik metonimiyani yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan.

Mohir so'z san'atkori Muhammad Yusuf dostonlarida kinoyaning nodir namunalarini kuzatamiz. Ayniqsa, "Qora quyosh" dostonida mustabid davrining shafqatsiz, zolim hukmdori tufayli qatag'onga uchragan qurbonlarning fojiaiy qismati tasvirlangan bo'lib, shoir mavjud tuzumga subyektiv munosabatini namoyon qilishda kinoyalardan maqsadli foydalangan:

*Ey, yashasin, bizning dono yo'lboshchimiz*

*Iosif Vissarionovich, quyoshimiz.*

*U shoh edi, ogoh edi,*

*To'kilmadi boshimizdan... bir sochimiz!* ("Qora quyosh")

Keltirilgan kinoyali parcha situativ xarakterlanadi. Muallifning ichki maqsadi davrga, hukmdorga nisbatan aniq ko'rinib turibdi. Chunonchi, kinoya vositasining ishora qilish vazifasi subyektning ichki maqsadini yuzaga chiqarishda aktual vazifa bajargan. Shu bilan bir qatorda, kinoyali ifoda asarning ta'sirchanligini, obrazlilikini, tasviriyligini, emotsional-ekspressivligini yuzaga keltirishda alohida ahamiyat kasb etgan.

Ijodkorning badiiy mahorati, lug'at boyligining kengligini perifrazadan foydalanishida ham kuzatish mumkin bo'ladi. Perifrazalar badiiy tilning rang-barangligini, ta'sirchanligini, ohangdorligini va jozibadorligini ta'minlovchi lingvopoetik vositalardan biridir. Badiiy asarda perifrazlardan ortiqcha takrorlardan, o'rinsiz qaytariqlardan qochish maqsadida ham foydalaniladi. Jumladan, Muhammad Yusuf dostonlarida perifrazadan tasvirni obrazli, ta'sirchan va kitobxonga tushunarli qilib berish maqsadida foydalanadi:

*Tarix soqov kampir,*

*Dardin aytmaydi,*

*Aytolmas,*

*Unutib ham bo'lmas ammo* ("Qora quyosh").

Keltirilgan parchada *soqov kampir* perifrazasi orqali sho'ro davridagi mudhish kunlar, qatag'on dahshatlarini o'z bag'riga olgan o'tmish obraz sifatida gavidalantiriladi. U kunlar haqida hamma bilsa-da, gapirolmaydi. Chunki mumkin emas. "Soqovlik" xususiyati shunga ishora. Ammo unutib ham bo'lmaydi. Kampir siyomosida og'ir dardni ichiga yutgan butun bir davr gavidalantiriladi.

Mazkur bobning "**Dostonlarda chegaralangan leksik qatlam**" deb nomlangan § III.2 da chegaralangan leksik qatlam, ya'ni agnonimlarning matndagi badiiyati haqida so'z boradi. O'zbek tilshunosligida agnonimlar haqida professor M.Yo'ldoshev alohida to'xtalib o'tadi va quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "agnonimlarni so'zning leksik-semantik mohiyatiga daxldor obyektiv hodisa sifatida emas, balki so'zni idrok etish bilan bog'liq subyektiv hodisa sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi. Bu hodisani tildagi omonim, paronim, antonim, sinonim kabi so'z guruhlari qatorida emas, balki tildan foydalanuvchining lisoniy-idrok layoqati bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganish mumkin"<sup>21</sup>. Shoir o'zi

<sup>21</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – В. 199-200.

ishlatgan ma'lum bir so'zni izohlash ehtiyojini sezsa, demak o'sha so'zning tushunarlilik darajasi cheklangan bo'ladi. Shuni nazarda tutib, izoh yoki unga taalluqli so'zlarni keltirish orqali agnonimik birliklarning tushunarlilik darajasini orttiradi. Quyida Ikkinchi jahon urushiga oid agnonimni ayni ushbu dostonda kuzatamiz hamda tahlilga tortamiz:

*Dzotlar ham,*

*Dotlar ham,*

*Kema,*

*Samolyotlar ham,*

*Besh kolxozning*

*Yolg'izi –*

*Traktor ham men edim!..* (“Temirlar nidosi”)

Berilgan matndan anglashiladiki, *dzot* va *dot* agnonimlari o'sha jangda foydalanilgan qisqartma so'z. Tabiiyki, buning ma'nosini o'quvchi birinchi marta asarni mutolaa qilganda anglashi dargumon. Ushbu qisqartmaning ma'nosi aslida *Dzot* (дерево-земляная огневая точка) dala, o't inshootidir, u nafaqat parchalar va o'qlardan, balki dushmanning minalari va snaryadlaridan ham himoya qiladi<sup>22</sup>. Ko'rinadiki, Muhammad Yusuf ushbu dostonlarni yozar ekan, urush davridagi har bir holatni, har bir vaziyatni sinchkovlik bilan o'rganib chiqqanki, hammaga ham ma'lum bo'lmagan so'zlarni, ya'ni agnonimlarni juda ziyraklik bilan qo'llagan. Chunonchi, ikkinchi misradagi *dot* agnonimi ham bejizga ijodkor tomonidan tanlanmagan. Bu qisqartma *Dzot*dan farqli o'laroq boshqa ma'noni bildirsa-da. Lekin matnning shakliy butunligini ta'minlashga xizmat qilgan. *Dot* (долговременная огневая точка) – temir-betondan qurilgan va hududni zamonaviy mustahkamlashning asosi va zamonaviy mustahkamlangan hududlarning asosiy elementi bo'lgan inshoot<sup>23</sup>.

§ III.3. “**Dostonlarda sintaktik usullardan foydalanilishi**” deb nomlanib, dostonlarda sintaktik parallelizm, ritorik so'roq gaplar, inversiya, gradatsiya, antiteza, oksyumoron kabi uslubiy figuralar orqali adib fikrni o'ta ta'sirchan ifodalashi xususida fikr yuritiladi. Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham sintaktik vositalar alohida estetik ifoda imkoniyatlariga ega birliklar hisoblanadi. Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no-mazmunlarni ham ifodalay oladi<sup>24</sup>. Sintaktik parallelizmning murakkab ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular *xiazm* va *inkorli* parallelizmdir. Muhammad Yusuf dostonlarida ham shu turdagi sintaktik parallelizmlar quyidagicha namoyon bo'ladi: 1. *Xiazm* – bu so'zlarning qisman yoki to'la teskari takrorlashdir. Masalan: *Mashaqqatning oxiri rohat. Rohatning oxiri yana mashaqqat.* (“Osmonning oxiri”) 2. *Inkorli parallelizm* esa avvalgi bo'lakni inkor qiluvchi turdir: *Bilib turib birovga ozor berishdan yomoni yo'q. O'zing ham bilmasdan birovga yaxshilik qilishdan ortiq yaxshilik yo'q.* (“Osmonning oxiri”) Misralarda qo'llanilgan sintaktik

<sup>22</sup> <http://kfss.ru/content/fortifikacionnyy-slovar>

<sup>23</sup> <http://kfss.ru/content/fortifikacionnyy-slovar>

<sup>24</sup> Бу ҳақда қаранг: Ўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 221.

parallelizmlar soddalik, ravonlik uchun xizmat qilgan. Xususan, dostondagi sintaktik parallelizm vositasida asarning ta'sirchanligi oshirilgan hamda shoirning badiiy niyati aniq va yorqin tasvirlangan, ko'zlangan maqsad kitobxonga yanada tez va oson yetkazib berilgan.

Muhammad Yusuf dostonlarida ritorik so'roqning go'zal namunalari ko'p marotaba qo'llanilganligini kuzatamiz. "Qora quyosh" dostonidan olingan parchada birgina ritorik so'roq gap orqali dostonda aytilmoqchi bo'lgan alam, afsus, nadomat kabi ma'nolarni o'zida aks etgan ushbu jumlada taajjub mazmunidagi ritorik so'roqni kuzatamiz: *Kim endi bu adib? Qodiriyimi?... Cho'lponmi yoki Usmon Nosirmi?!... Ko'rinadiki, doston mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holatda jadidlarning taqdiri qanday kechayotganligi, ularning qay biri, qay ahvolda ekanligi haqida muallifning ichki ruhiy holatida hayron bo'lib, taajjublanib, xavotirlanib so'roqlangan. Adib ritorik so'roqlar yordamida inson kayfiyatiga noxush ta'sir etadigan ottenkalarni ham bera olgan.*

Inversiya usulida Muhammad Yusuf deyarli dostonlarining har bir misrasida, har bir she'riy parchasida unumli qo'llagan. Asosan inversiya she'riyatda ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ko'p foydalaniladi. Adib ham bundan mustasno bo'lmagan holda inversiyani quyidagi misralarda qo'llaganini kuzatamiz:

*O'tirar kelishgandek bog'chasiga,  
Qo'lchalarini qo'yib oyoqchasiga.  
Mo'tirar tergovchi tayoqchasiga –  
Ikki yashar "xalq dushmanlari". ("Qora quyosh")*

Yuqorida keltirilgan namunada inversiya hodisasining yuz berish natijasida, misralardagi *bog'chasiga, oyoqchasiga, tayoqchasiga* leksemalarga urg'uli pozitsiyaga o'tadi, ayni shu so'zlarga ma'no urg'usining tushishi muallif badiiy niyatiga, asar mazmuniga va emotsional tonalligiga muvofiq keladi. Yana shuni aytib o'tish joizki, *bog'chasiga, oyoqchasiga, tayoqchasiga* leksemalari qofiyalanadi.

Muhammad Yusuf dostonlarida gradatsiya hodisasi ham kuzatiladi. Bunday hodisani quyidagi parchada kuchaytirilgan takror holatida kuzatamiz:

*Bedarak yo'qoldi qancha odam, essiz,  
So'roqlarda o'ldi qancha odam, essiz,  
Qiynoqlarda o'ldi qancha odam, essiz,  
Sirtmoqlarda qoldi qancha odam, essiz... ("Qora quyosh")*

Yuqoridagi parchada ifoda usuliga ko'ra mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya turiga misol bo'la oladi. Satrlarda takror usuli bilan gradatsiya usuli parallel qo'llanilgan bo'lib, bu yerda o'sha qatag'onga uchraganlarning holatiga achinish, qayg'urish ma'nosida ifodalanadi.

Muhammad Yusuf o'z dostonlarida antitezadan mahorat bilan foydalanganligini ushbu misrlarda kuzatamiz:

*U xalqlar qotili,  
Xalqlar otasi,  
Tilim tebranmaydi*

*Yomon deyishga  
U shunday ulug‘ki,  
Yo‘qdir qiyosi*

***Qancha ulug‘ bo‘lsa***

***Tubandir shuncha.*** (“Qora quyosh”)

Yuqoridagi satrlardagi “*xalqlar qotili*” so‘z komponentiga “*xalqlar otasi*” so‘z birikmasi bilan zidlantirilib ifodalangan. Ushbu *qotil* so‘zi aslida *ota* so‘ziga zid kelmasligini juda yaxshi bilamiz. Ammo *qotil* leksemasi “jon oluvchi” ma’nosida kelgan bo‘lsa, *ota* komponenti “jon beruvchi” ma’nolarini anglatib kelgan. Ko‘rinadiki, parchadagi misralarning deyarli barchasi antitezaga misol bo‘la oladi: “*qancha ulug‘ bo‘lsa*” misrasiga “*tubandir shuncha*” misrasi zidlanib kelgan. Muhammad Yusuf bu so‘z komponentlarni shunday qo‘llaydiki, o‘sha mudhish fojiali, qonli davrni har bir kitobxonning tasavvuriga keltirishiga muvaffaq bo‘ladi.

Shoirning oksyumron usulidan foydalanishi o‘zbek tilshunosligida yangi noodatiy birikmalar kashfi desak ham bo‘ladi. “Qora quyosh” dostonining nomi ham oksyumoronga misol bo‘ladi. Dostonda bunday usuldan keng foydalanganligini quyidagi parchada kuzatamiz:

*U – yorug‘ dunyoda*

*Tengi yo‘q inson,*

***Qarddon begona,***

***Yovuz mehribon.*** (“Qora quyosh”)

Yuqorida keltirilgan parchada *qarddon begona*, *yovuz mehribon* oksyumorolari qahramonlar tabiatini to‘liq ochib berishga yo‘naltirilgan. Bu kabi birikmalar shoirning badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘la oladi. Oksyumoron shoir ijodida shunchaki antiteza bo‘libgina qolmasdan, inson ruhiyatiga xos eng nozik jihatlarni ochib berishga qaratilgan hodisa hisoblanadi.

Muhammad Yusuf an’anaviy o‘xshatishda ta’kidni bo‘rttirish maqsadida o‘xshatish etalonini ham birga qo‘llaydi:

*Qo‘ling ochiq, ko‘zlaring yumuq –*

*Sen mening otamga o‘xshaysan.* (“Ko‘hna quduq”)

Adib o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida “*o‘xshaysan*” vositasidan foydalangan. Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasicha, aynan o‘xshatilmog‘chi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday holatlarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha *o‘xshamoq* fe‘lidan foydalaniladi<sup>25</sup>. “Ota” leksemasiga tegishli “mehribon, keksa, xoksor, aziz” semalari o‘xshatishga vosita bo‘lyapti. Oldingi misradagi *qo‘ling ochiq, ko‘zlaring yumuq* iboralari ota obrazini yanada quyuqlashtiradi. Ya’ni uni *saxiy* va *g‘ofil* sifatlari bilan boyitadi.

Dissertatsiyaning IV bobi “**Muhammad Yusuf dostonlaridagi poetonimlar lingvopoetikasi**” deb nomlanadi. § IV.1 da shoir dostonlardagi poetonimlarning o‘rni yoritilgan. Dostonlarda poetonimlarni tahlil qilar ekanmiz, ularni *allyuziv nom*, *onomastik metafora*, *onomastik metonimiya*, *onomastik*

<sup>25</sup> Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 58.

*zidlantirilgan nomlar, onomastik perefrazlar, onomastik birliklar asosidagi o'xshatishlar* hamda *agnonim nomlar* singari vazifalarni bajarganligi kuzatiladi. Poetonimlarning she'riy matnda allyuziv nom vazifasida kelishi eng faol hodisalardan biri hisoblanadi. Ular badiiy matnda pretsendent nomlar (xalqning lisoniy xotirasida saqlanuvchi mashhur faktlar bilan bog'liq nomlar)ning funksional turlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi<sup>26</sup>. Muhammad Yusufning "Ey, dil..." dostonida Mirzo Bobur poetonimi allyuziv nom sifatida kelganligini kuzatamiz:

*Bobolaring  
Dastingdan dod  
Urib kelsa, netarsan,  
Unutding deb  
Ustingga ot  
Surib kelsa, netarsan?  
**Mirzo Bobur**  
Mozoridan  
Turib kelsa netarsan? –  
Ey dil sen ayt!*

Dostonlarda aksariyat kitobxon bilmaydigan, tushunmaydigan tarixiy real shaxslar nomlari uchraydi. "Qora quyosh" dostonida onomastik agnonimlar ko'p marotaba uchratamiz:

*Qaysi aybi uchun otildi **Yakir**,  
Nonushta ustida sotildi **Yakir**...*

Keltirilgan misollarda *Yakir* agnonimi kitobxon uchun umuman tushunarsiz, mavhum shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, bu tarixiy shaxslardan biri *Yunus Emmanuilovich Yakir* sovet harbiy arbob, 1-darajali komandarm (1935). Fuqarolar urushi davridagi harbiy boshliq. Tuxachevskiy ishi bo'yicha hukm qilingan va o'ldirilgan (1937)<sup>27</sup>. Aytish joizki, *Yakir* agnonimini adib misralarda mahorat bilan qo'llar ekan, aynan ushbu agnonimni havolada komandarm ekanligi haqida izoh qoldirgan. Buning bilan agnonim poetik jihatdan aktuallashganligini ko'ramiz.

**"Antropoetonimlar va ularning dostonlardagi poetik aktuallashuvi"** deb nomlangan § IV.2 da shoir dostonlarida antropoetonimlar lingvopoetik jihatdan aktuallashib, muallif hamda qahramonning munosabatini ifodalashga, obraz xarakteriga xos ayrim jihatlariga ishora qilish hamda badiiy san'atlarni shakllantirishda ko'makchi vazifasida kelishi xususida fikr yuritiladi. Muhammad Yusuf ham dostonlarda apellyativ vazifani bajarish maqsadida real nomlardan unumli foydalanganligini kuzatamiz. Masalan:

*Tanki bilan  
Dneprga  
Cho'kib ketdi **To'xtasin!**  
Ey dil, sen ayt.*

<sup>26</sup> Худойберганова Д., Анданиязова Д. Кўрсатилган манба. - Б. 6.

<sup>27</sup> <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>

*Ey dil, sen ayt.  
Sen aytmasang aytgay kim –  
Sohilga bor  
Daryoga ayt,  
Bir zum suvi to‘xtasin...*(“Ey, dil...”)

Yuqoridagi parchada shoir *To‘xtasin* antroponimidan foydalanib, o‘ziga xos so‘z o‘yinini yuzaga keltirgan. *To‘xtasin* antroponimiga *to‘xtasin* fe’l komponenti qofiya qilinib, tajnis san’ati shakllantirilgan. *To‘xtasin* – o‘zbeklarda ko‘p qo‘yiladigan ismlardan biri bo‘lib, shoir bu obrazda mard, vatanparvar, fidoyi oddiy o‘zbek yigitining tipik siymosini mujassam qilgan. *To‘xtasin* antroponimi orqali *To‘xtasin* fe’li zamirida urushning, insoniyat boshiga tushgan balo-ofatlarning ham to‘xtashini istash tuyg‘usi anglashilib turadi. Bu esa antroponimlarning badiiy san’at hosil qilishda salmoqli o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Muhammad Yusuf dostonlarida uchraydigan antroponimlarning lingvopoetik xususiyatini yoritish ekanmiz, ularni quyidagicha tasniflab tahlilga tortdik: 1. *Tarixiy shaxslar nomlari*; 2. *Afsonaviy shaxslarga mansub nomlar*; 3. *Odatdagi real nomlar*; 4. *Boshqa millatga mansub nomlar*; 5. *Familiya usulida qo‘llanilgan antroponimlar*; 6. *Otaismi bilan qo‘llanilgan antroponimlar*; 7. *Laqab usulida ifodalangan antroponimlar*; 8. *Taxallus tarzida kelgan antroponimlar*; 9. *Qisqartma nomlar*; 10. *Boshqa asarlardan ko‘chib o‘tgan qahramon nomlari*; 11. *Agionimlar*.

Mazkur bobning § IV.3. **“Dostonlardagi topopoetonimlarning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Ta’kidlash joizki, Muhammad Yusuf asarlarini leksik tarkibining bir qismini tashkil qiluvchi toponimlar lingvopoetik birlik sifatida xarakterliligidadir. Adibimiz ma’lum voqealarni dostonlarda tasvirlar ekan, hodisalar yuzaga kelgan joy, sharoit bilan kitobxonni to‘laqonli tanishtirishga harakat qiladi. Shoir dostonlarida toponimlar muhim poetonimik qatlam hisoblanadi. Muhammad Yusuf dostonlarining tahlil qilish jarayonida toponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy makonni tasvirlash va toponimlarni kontekstga kiritishning ko‘plab usullari mavjud, lekin har bir ijodkor toponimlarning o‘ziga xos ishlatishi hamda ularni kontekstga kiritishning ko‘plab usullari bilan ajralib turadi. Badiiy asarning xalqchiligini ta’minlashda xalq tilining rango-rang vositalari bo‘lmish sheva so‘zlari alohida ahamiyat kasb etadi. Muhammad Yusuf xalq tilining bilimdoni sifatida bu ulkan xazinadan foydalanganligini dostonlarida kuzatamiz:

*Men yig‘ladim fashistlar  
Go‘dakni ham otganda,  
Goh odam deb yurganim  
O‘z yurtini sotganda,  
Tili boshqa bolam, deb,  
Yurakdagi nolam, deb,  
Tunlari uxlatganda,  
Saharlar uyg‘otganda,*

*O'n oltita bolasin*

*Bir temirchi Toshkanda!..* ("Temirlar nidosi")

*Toshkanda* toponimiga *otganda, sotganda, uxlatganda, uyg'otganda* leksemalari qofiyadosh bo'lib, matning shakliy butunligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bu esa shoir tomonidan so'z qo'llashda o'ziga xoslikni namoyon qilgan. *Toshkanda* toponimi lingvopoetik vosita sifatida qo'llanilgan. Ko'rinadiki, keltirilgan toponimlar orqali ijodkorning individual mahorati xarakterlanadi.

#### **XULOSA**

1. Hozirgi o'zbek tilshunosligida muayyan ijodkor asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Lingvopoetik tadqiqotlar tilimizning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

2. Muhammad Yusuf o'z ijodi bilan tilimizning betakror ohanglari, serjilo ma'no bo'yoqlarini namoyon qila olgan noyob iste'dod egasi hisoblanadi. U o'zbek tilining boy estetik imkoniyatlarini ko'rsatibgina qolmay, uni turli ma'nolar, go'zal ifodalar bilan ham boyita olgan.

3. Muhammad Yusuf paremiologik birliklardan dostonlarida juda ham unumli foydalangan. Maqol, ibora va matallar o'ziga xos uslubda qo'llanilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi mazmunan boyitilib, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi kuchaytirilgan. Maqollar va iboralarning leksik yoki grammatik jihatdan o'zgartirilishi asarda o'ynoqilik va ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlaydi. Bu esa asar ma'no ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda tayyor maqol va iboralarga yangicha ko'rinish hamda mazmun baxsh etgan. Bunday paremiologik birliklar dostonlarning ta'sirchanligini va ohangdorligini oshirib, badiiy va estetik jihatdan kuchli asarlar yaratilishida muhim ahamiyatga ega. Dostonlarda qo'llanilgan yoxud yaratilgan hikmatli so'zlar hamda barqaror birikmalar shoir uslubining betakrorligi, uning o'ziga xosligidan darak beradi.

4. Muhammad Yusuf dostonlarida badiiy vositalarning mavzu bilan uzviy bog'langan, davr ruhiyati bilan sug'orilgan go'zal namunalari kuzatildi. Ular ijodkorlarning yaratuvchanlik mahorati va uslubidan kelib chiqqan holda o'ziga xoslikni, bo'yoqdorlikni kashf etadi. Dostonlarda metaforalar xalqchil fikrni ifodalashda va badiiy ifoda estetik qiymatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Muhammad Yusuf dostonlarida metonimiyali ifodalardan o'zining badiiy-estetik niyatini ta'sirchan ifodalashda foydalangan. Kinoyalardan esa asar qahramonlarini tipiklashtirishda, ularning individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarini aks ettirishda, makon va zamon tasvirini berishda qo'llagan.

5. Muhammad Yusuf dostonlarida perifrazarlar poetik jarangdorlikni ta'minlashda, obrazlilikni kuchaytirishda, shuningdek, o'rinsiz takrorning oldini olishda o'ziga xos lingvopoetik vazifani bajargan.

6. Agnonimlar tarkibiga kiruvchi birliklarning barchasi ham badiiy-estetik yuk olmasligi mumkin, biroq shoir ijodida qo'llanilgan agnonimlar o'ziga xos poetik maqsadlarni ifodalaydi. Shoir dostonlarida joy va makon, qurol, faoliyat turi bo'yicha, kiyim-kechak, jonivor va hayvon nomlari singari agnonimlarni keng

qo‘llagan. Bu nomlar asarning kontekstini boyitib, muhitni yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qiladi.

7. Muhammad Yusuf dostonlarida sintaktik vositalar integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etadi, shu bilan birga, bu munosabatlar asosida turli badiiy ma’no va mazmunlarni ifodalaydi. Dostonlarda poetik aktuallashadigan sintaktik usullar, masalan, sintaktik parallelizm, ritorik so‘roq, inversiya, gradatsiya, oksyumoron, antiteza va o‘xshatishlar tadqiq qilingan. Ular asarda ta’kid, o‘tinch, so‘roq ma’nolarini kuchaytirish, darajalash, mubolag‘ani bo‘rttirish, tasvirni yanada teranlashtirish, qiyoslash kabi turlicha vazifalarni ado etadi.

8. Shoirning dostonlarida poetonimlar struktural-semantik yaxlitlikni ta’minlash bilan birga, janrning xususiyatlariga mos ravishda matnning serqatlamligini oshirishda, xalqning milliy mentaliteti va madaniyatini aks ettirishda, shuningdek, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Poetonimlar asarda allyuziv nom, onomastik metafora, onomastik metonimiya, onomastik zidlantirilgan nomlar, onomastik perefrazlar, onomastik birliklar asosidagi o‘xshatishlar hamda agnonim nomlar singari vazifalarni bajarganligini ham kuzatamiz. Birliklarining qo‘llanilishi tarixiy voqelik va shart-sharoit, shuningdek, milliy an’analarni aks ettiruvchi noyob manbalar hisoblanadi. Shu sababli poetonimlar ijodkor asridagi tarixiy davrlarga oid muhim lingvistik faktlarni aniqlash uchun samarali sharoit yaratadi.

9. Muhammad Yusuf dostonlarida uchraydigan antroponimlarni tarixiy shaxslarga mansub nomlar, afsonaviy tarixiy shaxslarga mansub nomlar, odatdagi real nomlar, boshqa millatga mansub nomlar, familiya usulida qo‘llanilgan antroponimlar, otasmi bilan qo‘llanilgan antroponimlar, laqab usulida ifodalangan antroponimlar, taxallus tarzida kelgan antroponimlar, qisqartma nomlar, boshqa asarlardan ko‘chib o‘tgan qahramon nomlari va agnonim kabi nomlar kuzatiladi. Bu turdagi antroponimlar asarda badiiyatini kuchaytirishga imkon yaratgan.

10. Toponimlar dostonlarda muhim poetonimik qatlam hisoblanadi. Muhammad Yusuf dostonlarida toponimlarning xoronimlar, astionimlar, ekklezionimlar, agoronimlar kabi turlari kuzatildi. Shuningdek, qisqartma toponimlar ham muayyan badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan. Umuman olganda, toponimlar dostonlarning badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, matnning estetik ta’sir kuchini oshiruvchi lingvopoetik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT ALISHER NAVO'I  
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE**

---

**UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE**

**DJAMALXODJAYEVA GULXUMOR TAXIROVNA**

**LINGUOPOETIC STUDY OF THE EPICS OF MUHAMMAD  
YUSUF**

**10.00.01 – Uzbek language**

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)  
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Tashkent-2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
in philological sciences**

<b>Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna</b> Muhammad Yusuf dostonlarining lingvopoetik tadqiqi.....	3
<b>Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna</b> Linguopoetic study of the epics of Muhammad Yusuf.....	25
<b>Джамалходжаева Гулхумор Тахировна</b> Лингвопоэтическое исследование эпосов Мухаммада Юсуфа.....	48
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	54

**The subject of the dissertation of Philosophy Doctor (PhD) is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.1.PhD/Fil2331.**

The dissertation was completed at Chirchik State Pedagogical University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the web page of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz) and on the Information and Educational Portal "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific supervisor:**

**Yuldashev Marufjon Mukhammadjonovich**  
doctor of philological sciences, professor

**Official opponents:**

**Sobirov Abdulhay Shukurovich**  
doctor of philological sciences, professor

**Hakimova Muhayyo Karimovna**  
doctor of philological sciences, associate professor

**Leading organization:**

**Samarkand State University**

The defense of the dissertation will take place on "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024 at \_\_\_ hours at the meeting of the Academic Council DSc.03/30.12.2019. Fil.19.01 for awarding academic degrees at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. (Address: Yusuf Khos Khajib Street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Telephone: (871) 281-42-44, fax: (99871) 281-42-44, ([www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

The dissertation can be found in the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered under number \_\_\_\_). (Address: Yusuf Khos Khajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Phone: (871) 281-42-44, fax: (99871) 281-42-44, ([www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)).

The abstract of the dissertation was sent out on "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024

(registry protocol number \_\_\_\_\_ dated "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024).

**Dadaboev Kh.A.**

Chairman of the academic council for awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

**Pardaev K.U.**

scientific secretary of the academic council for awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

**Ashirboev S.**

Chairman of the academic seminar at the academic council for awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

**Topicality and necessity of the thesis.** In world linguistics Linguistic-poetic research into the language of literary works and related language level units is becoming increasingly important. In fact, determining the poetic characteristics of each level unit in a given literary work, justifying the forms of linguistic realization of linguistic phenomena are important issues. At the final stage of development of the Uzbek society, the glorification of our spiritual values, the granting of the status of the state language to our national language requires a thorough study of the characteristics of our language, the scope of its use. “We need to increase the place and importance of the Uzbek language as a state language in our country, develop it according to the requirements of the times, realize our national identity and preserve the spirit of the nation. We believe that this is the most important factor in ensuring our bright future. Thanks to our practical efforts to achieve this noble goal, the state language is being used more and more in the life of our society and is becoming a true reflection of the national language”<sup>28</sup>. Indeed, the expansion of the Uzbek language’s role in society serves to develop not only the language itself but also its culture and historical values. Research and creative works conducted in Uzbek in the fields of literature, science, and education contribute to the renewal and enrichment of the language in accordance with contemporary demands. In recent years, the development of the linguopoetic approach in Uzbek linguistics has necessitated a comprehensive study of the linguistic units that compose literary texts. This approach serves to deepen the connection between language and artistry, enabling a broad and in-depth examination of the stylistic features, specific figures, and spiritual aspects of literary works.

In world linguistics linguopoetic research aims to identify the aesthetic and communicative functions of language, as well as to uncover the semantic layers of language units in literary works. This process, while emphasizing the uniqueness of Uzbek literature and culture, reveals important connections between linguistics and literary studies. As a result, the field of linguopoetics is emerging as a crucial aspect in ensuring the intrinsic link between linguistics and literary studies. Numerous studies have been conducted in this direction, focusing on the creativity of specific periods and individuals. Within the framework of these studies, the linguistic and stylistic features of poetic works, specific figures, and significant issues are being examined and presented. From this perspective, a specialized analysis of the literary features of dastans based on their artistry has become one of the pressing issues in modern Uzbek linguopoetics. An in-depth study of literary texts created in recent years from a linguopoetic standpoint allows us to identify the changes that have occurred in the process of linguistic contemplation and speech expression, not only of creators but also of the Uzbek people as a whole. The formation of new directions in Uzbek linguistics, aimed at studying the relationship between language and speech, society, culture, national thinking, and even artificial intelligence, poses important challenges for scientific research.

---

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. Xalq so‘zi. – 2023-yil 22-oktyabr. № 225.

Based on the principle of the author, the problem of determining the laws of linguopoetics, the research of general linguopoetic events and factors in the work of a particular author is highlighted. The work of Muhammad Yusuf is also a very important link. The main principles observed in the poetry of the period are reflected in his work. The study of this theme enriches our imagination about an important stage in the development of Uzbek poetry of the 20th century. The study of the unique ideas in the epics of Muhammad Yusuf, the analysis of the poetic passages of different genres from the linguistic point of view, the illumination of the signs of individuality in the prose determine the relevance of our comparative study.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated 7 February 2017 “On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan”, dated 21 October 2019, “Measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language” PF-5850, No. PQ-4479 dated 4 October 2019 “On the decision of the Republic of Uzbekistan “On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law “On the State Language”, Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 984 dated 12 December 2019 “On approval of the Regulation on the Department of State Language Development”, No. 139 dated 11 March 2020 “On measures to increase the effectiveness of basic and applied research on the Uzbek language and literature”, dated 29 October 2020 “On approval of the concept of development of science until 2030 PF-6097, to ensure the implementation of the tasks assigned by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev during his visit to “Adiblar Avenue”, organised in Tashkent on 20 May 2020, and the statement of the meeting No. 35, and in connection with this activity this research serves to some extent the implementation of tasks defined in other regulatory legal documents.

**Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic.** Dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic I. “Formation of the system of innovative ideas and their implementation in the social, legal, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

**The extent of study of the problem.** In world linguistics, a number of studies have been carried out on the language of literary works and linguopoetic peculiarities. For example, linguists Y.M.Lotman, R.Yakobson, B.Tomashevsky, V.M. Zhirmunsky, V. Vinogradov, A.A. Lipgart, V.Y. Zadarnova and other similar linguists in this direction, the harmony of the fields of linguistics and literary studies, an organic garden puts forward ideas about the existence of At this point, in the process of researching literary text in their works, it is emphasized that special attention should be paid to the essence of the linguopoetic approach to the

literary text, the role of linguistic units in the formation of the literary text, and the duties of the poet in illuminating the literary intention<sup>29</sup>.

In Uzbek linguistics, linguopoetic studies have paid special attention to such issues as the language and style of the poet and the study of the language of literary works. The works of Uzbek linguists such as I.Sultan. A.Nurmonov, Kh.Donyorov, S.Mirzayev, N.Mahmudov, I.Mirzayev, S.Karimov, M.Yaqubbekova, G.Rikhsiyeva, M.Yuldoshev, G.Muhammadjonova, D.Shadiyeva, D.Andaniyazova, Toshkhojaeva, S.Umirova, T. Allayorov, J. Yuldashev, and N.Ortikova have been researched on these issues<sup>30</sup>.

Although some aspects of the linguopoetics of Muhammad Yusuf's poetry have been touched upon by a number of philologists<sup>31</sup>, the epics of the poet's work have not been specifically studied from a linguopoetic point of view.

**The connection of the research with the research work of the research institution where the dissertation was completed.** In accordance with the research plan of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, it was carried

---

